



**TOSHKENT SHAHARDAGI
KORXONA VA TASHKILOTLAR
DEMOGRAFIYASI BO‘YICHA MA‘LUMOT**
*2020- yil 1- avgust holatiga ko‘ra
(fermer va dehqon xo‘jaliklaridan tashqari)*



Mamlakatimizda oxirgi yillarda tadbirkorlik subyektlariga ko'rsatilayotgan e'tibor

Tadbirkorlik subyektlari iqtisodiyotni rivojlantirish, aholi bandligi va daromadlarini oshirishda muhim omildir. Ushbu soha vakillarini har tomonlama qo'llab-quvvatlash maqsadida, oxirgi yillarda Prezidentimizning ko'plab farmon va qarorlari qabul qilindi.

Jumladan, tadbirkorlik faoliyatini davlat ro'yxatidan o'tkazish, turli ruxsatnomalar olish va boshqa ko'plab xizmatlar tartib-qoidalari soddalashtirildi. Bu borada qulaylik yaratish uchun Davlat xizmatlari agentligi va uning joylardagi markazlari tashkil etildi. Tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo'yicha vakil (Biznes-ombudsman) devoni tashkil qilindi.


Barcha hududlarda tadbirkorlar murojaatlarini qabul qilib, hal etishga ko'maklashadigan Bosh vazir qabulxonalari tashkil etildi. Vazirlar Mahkamasi huzurida Tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash davlat jamg'armasi faoliyati yo'lga qo'yildi. Tijorat banklari tomonidan tadbirkorlarga ajratilayotgan kreditlar hajmi oshdi.

Oxirgi yillarda hukumatimiz tomonidan tadbirkorlik subyektlarining faoliyatini yanada rivojlantirish va barqaror faoliyat ko'rsatishini ta'minlash maqsadida yaratib berilayotgan shart-sharoitlar va qulayliklar natijasida faoliyat ko'rsatayotgan hamda yangi tashkil etilayotgan korxonalar va tashkilotlar soni yildan-yilga sezilarli ravishda oshib bormoqda.

Korxonalar va tashkilotlar to'g'risidagi mazkur ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Davlat xizmatlari agentligi ma'lumotlar bazasi asosida, 2020- yil 1- avgust holatiga ko'ra (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) shakllantirildi.

Ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar soni


(1- avgust holatiga ko'ra, ming birlikda)



Mamlakatimizda qulay ish-bilarmonlik muhitini yaratish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish borasida qator ijobiy o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. O'z o'rnida, tadbirkorlik subyektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yish borasida ham qonunchilikda muhim qarorlar qabul qilinib, davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yishni avtomatlashtirilgan tizimi bosqichma-bosqich ishlab chiqilib, amaliyotga tadbir qilinmoqda. Bu esa aholi hamda xorijiy investorlarning o'z shaxsiy biznesini yo'lga qo'yish va rivojlantirish uchun muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

Korxonalar va tashkilotlar soni

(2020- yil 1- avgust holatiga ko'ra, birlikda)



Yuridik shaxs:

Yuritishida yoki operativ boshqaruvida alohida mol-mulkka ega bo'lgan hamda o'z majburiyatlari yuzasidan ushbu mol-mulk bilan javob beradigan, o'z nomidan mulkiy yoki shaxsiy nomulkiy huquqlarga ega bo'la oladigan va ularni amalga oshira oladigan, majburiyatlarni bajara oladigan, sudda da'vogar va javobgar bo'la oladigan tashkilot **yuridik shaxs** hisoblanadi.

Ro'yxatdan o'tgan tijorat korxonalari soni

(tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha
2020- yil 1- avgust holatiga ko'ra, birlikda)

67 264



Mas'uliyati cheklangan jamiyat

3 272



Oilaviy korxonona

604



Unitar korxonona

13 518



Xususiy korxonona

236




Aksiyadorlik jamiyati

499




Boshqa korxonalar

mas'uliyati cheklangan jamiyat
ming birlik



xususiy korxonona
ming birlik




Mas'uliyati cheklangan jamiyat

Bir yoki bir necha shaxs tomonidan ta'sis etilgan, ustav fondi (ustav kapitali) ta'sis hujjatlari bilan belgilangan miqdorda ulushlarga bo'lingan xo'jalik jamiyati mas'uliyati cheklangan jamiyat deb hisoblanadi. Mas'uliyati cheklangan jamiyatning ishtirokchilari uning majburiyatlari bo'yicha javobgar bo'lmaydilar va jamiyat faoliyati bilan bog'liq zararlar uchun o'zlari qo'shgan hissalar qiymati doirasida javobgar bo'ladilar.

Mas'uliyati cheklangan jamiyatning o'z hissasini to'la qo'shmagani ishtirokchilari, jamiyat majburiyatlari bo'yicha har bir ishtirokchi hissasining to'lanmagan qismi qiymati doirasida solidar javobgar bo'ladilar.


Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

(1- avgust holatiga ko'ra)




Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1- avgust holatiga ko'ra, birlikda)



Faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonolari soni

(tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha
2020- yil 1- avgust holatiga ko'ra, birlikda)



Aksiyadorlik jamiyati:


Ustav fondi muayyan aksiyalar soniga bo'lingan jamiyat – aksiyadorlik jamiyati hisoblanadi; – aksiyadorlik jamiyatining ishtirokchilari (aksiyadorlar) uning majburiyatlari bo'yicha javob bermaydilar va jamiyat faoliyati bilan bog'liq zarar uchun o'zlariga qarashli aksiyalar qiymati doirasida javobgar bo'ladilar.

Aksiyalar haqini batamom to'lamagan aksiyadorlar, aksiyadorlik jamiyatining majburiyatlari bo'yicha, o'zlariga qarashli aksiyalar qiymatining to'lanmagan qismi doirasida solidar javobgar bo'ladilar.


Aksiyadorlik jamiyatining firma nomida, jamiyatning nomi hamda bu jamiyat aksiyadorlik jamiyati ekanligi o'z ifodasini topishi kerak.

Yangi tashkil etilgan korxonona va tashkilotlar soni


(yanvar- iyul oylarida, birlikda)



Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar soni (iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha, yanvar-iyul oylarida)




Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha tarkibi (2020- yil yanvar-iyul oylarida, umumiy sonidagi ulushi)




2020- yilning yanvar-iyul oylarida 8 603 ta korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etildi. Shundan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar – 6 901 ta, xususiy korxonalar – 1 152 ta, oilaviy korxonalar – 342 ta, muassasalar – 88 ta va boshqalar – 120 tani tashkil etdi.

Sanoat yo'nalishida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni


(2020-yil 1-avgust holatiga ko'ra, ming birlikda)




Kichik tadbirkorlik subyektlari




Mikrofimlar




Kichik korxonalar




Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar




Oilaviy korxonalar



Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni



Xususiy korxonalar




Qurilish faoliyati bilan shug'ullanayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

(1- avgust holatiga ko'ra, ming birlikda)




Jami faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning umumiy soni o'tgan yilning shu davriga nisbatan **21,6** foizga oshdi




Kichik tadbirkorlik subyektlari soni




22,0 foizga oshdi



Mikrofirmalar




Kichik korxonalar



Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar




23,0 foizga oshdi



Oilaviy korxonalar (birlikda)




1,3 martaga oshdi




Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni



O'tgan yilga nisbatan **50,0** foizga oshdi



Xususiy korxonalar (birlikda)




O'tgan yilga nisbatan **7,9** foizga oshdi




Savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni


(1- avgust holatiga ko'ra, ming birlikda)




Kichik tadbirkorlik subyektlari soni




Mikrofirmalar




Kichik korxonalar




Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar




Oilaviy korxonalar




Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni



Xususiy korxonalar




Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar soni (2020- yil 1- avgust holatiga ko'ra, birlikda)



Ro'yxatdan o'tgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar soni 2020- yil 1- avgust holatiga ko'ra 6,8 mingtani tashkil etib, ulardan 6,5 mingtasi yoki 95,8 % faoliyat ko'rsatmoqda. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda 0,9 mingtaga yoki 117,8 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

2020- yil yanvar-iyul oylarida 604 ta xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etildi.


Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni (iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yanvar-iyul oylarida, birlikda)



Kichik tadbirkorlik subyektlari soni (2020- yil 1- avgust holatiga ko'ra, birlikda)



Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni (iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1- avgust holatiga ko'ra, birlikda)




**Toshkent shaharda MDH davlatlarining kapitali ishtirokida
faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni**
(2020- yil 1- avgust holatiga ko'ra, birlikda)

	Mamlakatlar	Jami	shundan:	
			qo'shma korxonalar	xorijiy korxonalar
1	 Rossiya Federatsiyasi	1 196	651	545
2	 Qozog'iston Respublikasi	613	278	335
3	 Ozarbayjon Respublikasi	152	47	105
4	 Ukraina Respublikasi	94	53	41
5	 Tojikiston Respublikasi	77	38	39
6	 Qirg'iz Respublikasi	77	28	49
7	 Turkmaniston Respublikasi	60	21	39
8	 Belarus Respublikasi	48	24	24
9	 Armaniston Respublikasi	23	15	8
10	 Moldova Respublikasi	16	4	12

Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarining davlatlar kesimida soni (2020- yil 1- avgust holatiga ko'ra, birlikda)



Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni (2020- yil 1- avgust holatiga ko'ra, birlikda)




**Tumanlar kesimida xorijiy kapital ishtirokidagi
faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni**
(2020- yil 1- avgust holatiga ko'ra, birlikda)

	Jami	shundan:	
		qo'shma korxonalar	xorijiy korxonalar
Toshkent shahri	6 554	2 746	3 808
<i>tumanlar:</i>			
Uchtepa	215	77	138
Bektemir	153	85	68
Yunusobod	855	362	493
Mirzo Ulug'bek	810	363	447
Mirobod	1 126	365	761
Shayxontohur	463	226	237
Olmazor	360	193	167
Sirg'ali	290	151	139
Yakkasaroy	1 037	400	637
Yashnobod	518	239	279
Chilonzor	727	285	442

Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarning asosiy qismi Mirobod – 1 126 ta (umumiy miqdoridagi ulushi 17,1 %), Yakkasaroy – 1 037 ta (15,8%) hamda Yunusobod tumanlarida 855 tani (13,0 %) tashkil etgan. Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning eng kam qismi Sirg'ali – 290 ta (4,4 %), Uchtepa – 215 ta (3,2 %) hamda Bektemir tumanlarida 153 tani (2,3 %) tashkil etgan.

Ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlarning tumanlar bo'yicha soni

(2020- yil 1- avgust holatiga ko'ra, birlikda)




2020- yil 1- avgust holatiga ko'ra ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar tumanlar kesimida taqsimlanganda ularning ulushi Yunusobod – (13,2 %), Chilonzor – (12,8 %), Mirzo Ulug'bek – (11,1%), Olmazor – (10,3 %), Shayxontohur – (9,8 %), Uchtepa – (9,2 %), Yakkasaroy – (8,7 %), Mirobod – (8,7 %), Yashnobod – (7,7 %), Sirg'ali – (6,1 %) hamda Bektemir tumanlarida (2,4 %) tashkil etgan

Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning tumanlar bo'yicha soni


(2020- yil yanvar-iyul oylarida, birlikda)

2020- yil yanvar–iyul oylarida yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar tumanlar kesimida taqsimlanganda ularning ulushi Chilonzor – (13,0 %), Yunusobod – (11,7 %), Uchtepa – (10,8 %), Mirzo Ulug'bek – (10,8 %), Shayxontohur – (10,1 %), Olmazor – (10,1 %), Yashnobod – (8,4 %), Mirobod – (7,9 %), Yakkasaroy – (7,2 %), Sirg'ali – (7,2 %) hamda Bektemir tumanlarida (2,8 %) tashkil etgan.




Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarining tumanlar kesimidagi soni

(2020- yil 1- avgust holatiga ko'ra, birlikda)



Yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalarining tumanlar bo'yicha soni

(2020- yilning yanvar-iyul oylarida, birlikda)



2020- yilning yanvar-iyul oylarida yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar, hududlar kesimida taqsimlanganda Shayxontohur – (15,8 %), Olmazor – (14,6 %), Yashnobod – (11,1 %), Yunusobod – (10,8 %), Chilonzor – (8,8 %), Sirg'ali – (8,2 %), Uchtepa – (7,9 %), Yakkasaroy – (7,0 %), Mirzo Ulug'bek – (6,7 %), Mirobod – (4,7 %), hamda Bektemir tumanlarida (4,4 %) tashkil etgan.

Statistik ko'rsatkichlarga izohlar

Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri – axborot-ma'lumotnoma tusidagi, vaqti-vaqti bilan yangilab boriladigan ma'lumotlardan iborat bo'lgan avtomatlashtirilgan tizim hisoblanadi hamda yagona klassifikatsiyalar tizimi asosida korxonalar va tashkilotlarning davlat hisobini va ularni identifikatsiyalashtirishni ta'minlaydi.

Ro'yxatga olingan korxonalar va tashkilotlar – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda yuridik shaxslarning davlat reestrda mavjud bo'lgan yuridik shaxslar (faoliyati tugatilgan yuridik shaxslardan tashqari).

Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda davlat statistika organlariga moliya-xo'jalik faoliyatini amalga oshirmayotganligi yoki tugatish jarayonida ekanligi to'g'risidagi ma'lumot kelib tushmagan yuridik shaxslar.

Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda yuridik shaxslarning davlat reestriga yangidan kiritilgan yuridik shaxslar.

Kichik korxonalar va mikrofirmalar – O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016- yil 24- avgustdagi “Iqtisodiy faoliyat turlarini tasniflashning xalqaro tizimiga o'tish chora-tadbirlari to'g'risida” 275- sonli qarorining 1- ilovasiga muvofiq kichik tadbirkorlik subyektlariga ajratiladi.

Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri

The screenshot shows the official website of the State Statistical Committee of the Republic of Uzbekistan. The main header includes the national emblem and the text 'O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI DAVLAT STATISTIKA QO'MITASI'. Below the header is a navigation menu with options like 'ASOSIY SAHIFA', 'QO'MITA HAQIDA', 'AXBOROT XIZMATI', 'INTERAKTIV XIZMATLAR', 'OCHIQ MA'LUMOTLAR', 'MUHOJATLAR', and 'KONTAKTLAR'. The main content area is divided into three sections: 'RASMIY STATISTIKA' on the left, a central form, and 'FOYDALI MA'LUMOTLAR' on the right. The central form is titled 'Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri' and contains a dropdown menu with options: 'Xizmatlar ro'yxati', 'Elektron hisobot', 'KTYaDR ma'lumotlari', 'Uslubiy materiallar', 'Statistik klassifikatsiyalar', 'Taqdim etiladigan hisobotlar ro'yxati', and 'Korxonalar pasporti'. Below the menu, there are input fields for 'STIR kodini kiriting', 'Rasmiylogi kodini kiriting', and a 'Qidiruv' button.

Tashqi foydalanuvchilar, bevosita Davlat statistika qo'mitasining www.stat.uz rasmiy saytida real vaqt rejimida, so'ralayotgan yuridik shaxsning (STIR) kodini kiritib, axborotlarni bepul olishlari mumkinligi belgilab qo'yilgan.

Toshkent shahar statistika boshqarmasi
Statistik registrlarni yuritish bo'limi
tel.: 71 230-88-31